



# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University

7/2023



7/2023

<b>Алиева Н.Х.</b>	Семантические особенности компьютерных фразеологических единиц и их классификация в разносистемных языках	98
<b>Axmedova M.B.</b>	Ingliz tilida “Spirituality” semantik maydoni: sotsial va lingvistik tahlil	106
<b>Панжиев Н.П.</b>	Сравнительный анализ согласных систем русского и узбекского языков с учётом влияния родного языка	111
<b>Sobirova Z.R.</b>	Mutual translation and its problems of touristic terms in English and Uzbek languages	118
<b>Achilova R.A.</b>	Allusive comparison	123
<b>Yusupova D.Y., Furqatova M.</b>	Ҳалима Худойбердиеванинг лексик-поэтик бирликлардан фойдаланиш маҳорати	126
<b>ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ</b>		
<b>Seytnazarova I.E.</b>	Шеърятда бадий такроп ва унинг турлари	132
<b>Murodova G.A.</b>	Maxtumquli ijodida Ahmad Yassaviy g‘oyalarining badiiy in‘ikosi	138
<b>Boltayeva G.Sh.</b>	Muhammas janrining nazariy asoslari	144
<b>Bozorova V.M., Maqsudova M.U.</b>	The term “American culture” in the literary works of world writers	147
<b>Elmanova M.T.</b>	Family dissonances in Joyce Carol Oates’ novel «Night. Dream. Death. Stars»	153
<b>Davletova Sh.B.</b>	The symbol of women in Muhammad Yusuf’s poetry	157
<b>Qayumova N.M.</b>	Dunyo sonetchiligiga nazar	163
<b>Shomurodova S.G‘.</b>	Aza marosimi qo‘shiqdarida motam kiyimlarining tasviri	168
<b>Sharipov M.M.</b>	O‘zbek jamiyatida xizmatkor obrazi rivoji va adabiyotda “uchinchi odam” tushunchasi	173
<b>Пардаева Д.Р.</b>	Амир Тимур в русскоязычной литературе: комплексный анализ образа и его исторического контекста	177
<b>Ўроқова Н.Ё.</b>	Замонавий шеърятда от образи талқини	181
<b>Tashova D.S.</b>	Individual badiiy shakllarga xos xususiyatlar	185
<b>Safarova Z.T.</b>	Tarbiya romanlarining badiiy adabiyotdagi genezisi va o‘rni	192
<b>Shermamatova Sh.B.</b>	Avaz O‘tarning “Yo‘q bo‘ling...” nomli g‘azalining talqinlari tahlili	197
<b>Бабаев О.А.</b>	Немисзабон мамлакатларда форс адабиёти	202
<b>Yo‘ldosheva M.B.</b>	Badiiy tarjimada portret tasvirining milliy-madaniy ta’sirini ifodalanishi	207

*Qayumova Nigora Muxtorovna,  
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** *Sonet janri o'n to'rt misradan iborat, o'ziga xos band tizimiga, qofiyalanish tartibiga ega janr bo'lib, G'arb lirikasiga mansub. Sonet janrining uch ko'rinishi bo'lib, dunyo she'riyati bag'rida paydo bo'lgan. Klassik, romantik, zamonaviy sonet turi G'arb she'riyatida keng tarqaldi, Sharq lirikasiga ham o'z ta'sirini o'tkaza oldi. Maqolada dunyo sonetchiligi, uning uch ko'rinishi haqida fikr boradi.*

**Kalit so'zlar:** *adabiyot, janr, she'riyat, shoir, sonet, qofiya, misra, lirika, sonet turlari, mavzu, mahorat, tarjima.*

### ВЗГЛЯД НА МИРОВОЕ СОНЕТНОЕ ИСКУССТВО

**Аннотация.** *Жанр сонета состоит из четырнадцати строк, имеет своеобразную строфическую систему, схему рифмы и относится к западноевропейской лирике. В лоне мировой поэзии появились три формы жанра сонета. Классический, романтический и современный типы сонетов широко распространились в западной поэзии и смогли повлиять и на восточный лиризм. В статье рассматриваются мировые сонеты и три их формы.*

**Ключевые слова:** *литература, жанр, поэзия, поэт, сонет, рифма, стих, лирика, типы сонетов, тема, мастерство, перевод.*

### A VIEW OF THE WORLD'S SONNET ART

**Abstract.** *The sonnet genre consists of fourteen lines, has a unique stanza system, rhyme scheme, and belongs to Western lyric poetry. There are three forms of the sonnet genre, which appeared in the bosom of world poetry. The classical, romantic, and modern type of sonnet spread widely in Western poetry, and was able to influence Eastern lyricism as well. The article discusses world sonnets and its three forms.*

**Keywords:** *literature, genre, poetry, poet, sonnet, rhyme, verse, lyric, sonnet types, theme, skill, translation.*

**Kirish.** G'arb lirikasining janri sifatida paydo bo'lgan, taraqqiy topgan, dunyo xalqlarining aksariyati, jumladan, o'zbek she'riyatida mavjud bo'lgan o'n to'rt misrali she'r sonetdir. "Sonet" italyancha "sonetto", provanscha "sonet", ya'ni "qo'shiq" so'zidan olingan. Sonetshunoslar sonetning vatani haqida turli taxminlarni ilgari suradilar. Ba'zi tadqiqotchilar sonet janri ilk bor XI-XIII asrlarda ritsarlik lirikasi tarkibida Fransiya janubidagi qishloqlardan biri Provansda paydo bo'lgan degan taxmini keltirishsa, boshqa birlari sonet yaratilgan maskan Italiya ekanini aytishadi. Yana bir guruh olimlar fikricha, sonet qadimgi Gretsiyada yaratilgan. Sonetning vatani Italiya, undan ham aniqroq qilib aytilganda Sitsiliya deb hisoblaydigan tadqiqotchilar ko'pchilikni tashkil etadi.

**Qo'llanilgan metodlar.** Maqolada sonet janri tadqiqot obyekti sifatida olinib, jahon she'riyatidagi buyuk shoirlar tomonidan yaratilgan sonetlar qiyosiy metod asosida tahlil qilindi. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, birinchi sonetnavis shoir Jakopo da Lentini sanaladi. U Sitsiliya qiroli Fridrix II ning saroyida notarius vazifasida ishlagan. Ayni damda "Sitsiliya maktabi" shoiri bo'lgan. Dastlabki italyan sonetlari o'zining vazni, kompozitsiyasi, qofiyalanish tartibi bilan xalq qo'shiqlariga yaqin bo'lgan. Shoirlar Gvido Gvinitsell, Gvido Kavalkanti, Chino da Pistoyya va Toskana, demokratik shoirlar maktabining vakili Chekko Andjolyeri keyinchalik sonet shaklini «dolce stil nuovo» ("yangi xushta'b uslub") shakliga o'zgartirishdi. Ular ijodidan so'ng trubadurlar she'riyatining mahubaga ta'rif beruvchi sonetlari vujudga keldi. Shoirlarning «dolce stil nuovo» sonetlarida ayol ilohiyashtirildi, muhabbatdagi tabaqalash to'siqlariga qarshi turildi, insonning ma'naviy olami ifoda etildi. Sonetning poetik tili o'ziga xoslik kasb eta boshladi. Andjolyeri va uning izdoshlari quyi tabaqa hisoblangan insonlarga mansub sonetlarida mashaqqatli hayot va undagi oddiy insoniy quvonchlarni kuyladilar.

Qat'iy deb hisoblangan sonet yozish qoidalari 1332-yilda paduan adibi Antonio da Temponing "Summa artis rithimici vulgaris dictaminis" nomli she'rshunoslik traktatida ifodalangan [1,38].

## LITERARY CRITICISM

XIII asr boshlarida Italiyada Dante Aligyeri hamda Petrarka kabi mashhur shoirlar tomonidan sonet yanada takomillashtirildi. Bu lirik janr “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da [4,126] ikkita katren, ikkita tersetdan tashkil topadi deb ko‘rsatiladi. Biz lug‘atda keltirilgan ma‘lumotga tayanib bu janrning turli adabiyotdagi tuzilishi va qofiya tartibini jadvalga soldik. Ammo qofiya tartibini ikki variantda berdik:

№	Qaysi xalqning she‘riyatiga mansubligi	1-katren	2-katren	1-terset	2-terset
1.	Italyan soneti	Lug‘atda: a-b-a-b	a-b-a-b	c-d-c (yoki c-d-e)	d-c-d (yoki c-d-e)
		Bizningcha: a-b-a-b	d-e-d-e	f-g-f (yoki f-g-h)	i-j-i (yoki i-j-k)
2.	Fransuz soneti	Lug‘atda: a-b-b-a	a-b-b-a	c-c-d	e-e-d (yoki e-d-e)
		Bizningcha: a-b-b-a	d-e-e-d	f-f-g	i-i-j (yoki i-j-i)
3.	Ingliz sonetida	Lug‘atda: a-b-a-b	c-d-c-d	e-f-e-f	g-g
		Bizningcha: a-b-a-b	d-e-d-e	f-g-f-g	h-h

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Sonetlar qofiyasini belgilashda ikki xillik chiqib qolganiga ikki sabab bor.

1. Harflar lug‘atda ingliz alifbosiga tayanib belgilangan, biz lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosiga tayandik.

2. Lug‘atda ikki katreniga bir xil harf olingan, ammo qofiya bir xil emas. Biz ikki katren alohida qofiyalangan uchun har biriga alohida harf belgiladik. Shu sababdan qofiyalanishni harf bilan belgilashda farqlar paydo bo‘ldi.

Dunyo sonetchiligida bu janrning uchta asosiy turi mavjud:

1. Klassik sonet: italyan va fransuzcha sonet bo‘lib, 14 satrdan iborat, qat‘iy qoidalarga asoslangan. Bu sonetlar to‘rt misrali ikki katren; uch misrali ikki tersetdan tashkil topadi. Qofiya tartibi barqaror, misralar o‘n-o‘n bir bo‘g‘inli. Klassik sonetlar, odatda, muhabbat mavzusidagi lirik she‘rlar bo‘lib, falsafiy mazmun kasb etadiganlari ham bor.

2. Romantik sonet: Shekspir asoslagan sonet turi hisoblanadi. O‘n to‘rt qatorli bunday sonetlar to‘rt misrali uch band va ikki misrali bir banddan tashkil topadi.

Oxirgi band muallif xulosasidan iborat. To‘rtliklarda qofiyalash, asosan, o‘zaro bog‘langan. Lirik mazmundagi bu sonetlar muhabbatni tarannum etuvchi, falsafiy fikrlarni qamrab oluvchi she‘rlar sanaladi.

3. Zamonaviy sonet: ruscha sonet bo‘lib, o‘n to‘rt misradan tashkil topishi, mavzusi an’anaviylik kasb etadi. Ammo klassik va romantik sonetning qat‘iy talablari to‘liq buysunmagani bilan sonetning yangi ko‘rinishi sifatida e’tirof etiladi [11]. Bu qofiya tartibiga ko‘ra sonetning turlari haqidagi fikrlardir.

Italiyada lirikasida sonet janrining shakliy jihatlari, asosan, Petrarka tomonidan mukammallashtirilgan, ya’ni Petrarka sonetlarining o‘ziga xos tuzilishi va qofiya tartibi mavjud. Shu boisdan italyan sonetchiligi “Petrarka soneti” nomi bilan ham yuritiladi. Petrarka sonetlari Laura ismli ayolga bag‘ishlangan. Shoir sonetlarining oktavasi ikkita alohida to‘rtlik banddan iborat bo‘lib, odatda, a-b-b-a; d-e-e-d tarzida qofiyalanadi:

Qo‘shiqqa jo etdim yoshlik zavq-shavqin, a  
Og‘riqli oh-vohlar shovqini giryon, b  
Ilk xato xun olgan shum damdan buyon b  
His etmay yasharman o‘z umrim haqqin. a

Behuda orzu va benaf jafo-kin d  
Muztar ovozimni uzar nogahon, e  
Qalbim uzr-ma‘zur bobida hayron, e  
Sevishganlar, faqat xayrixohlik chin. d

Bundan ko'rinadiki, Petrarkaning sonetlarida qofiya tartibi "Adabiyotshunoslik lug'ati"da fransuz sonetchiligi qofiya tartibi deb keltirilgan sxemaga monand. Shunisi borki, italyan va fransuz sonetchiligi klassik sonetchilik namunasi hisoblanadi.

Petrarkaning ushbu soneti sesteti esa ikkita uch misrali tersetdan iborat bo'lib, f-g-h; f-g-h tarzidagi qofiyalanishga ega. Shoir sonetidagi oktava va sestet alohida g'oyani ilgari suradi. Oktavaning ikki bandida muhabbatning o'tkinchi ekani, oh-vohlar og'rig'i haqida fikr borsa, sestetda umrning mohiyati, dunyoviy shodliklarning o'tkinchi ekani xususida gap boradi. Oktava va sestetning qofiya tartibi ham alohida.

Ustimdan kuladi har kimsa, nahot, f  
Muhimmi, hakamlar juda ham sipo: g  
O'zimni kulgili sezyapman hozir. h

Zimni puch manfaat chanqatar, hayhot, f  
So'ng anglab, o'zimni aybladim hatto, g  
Dunyoviy shodliklar – muxtasar tushdir. h

Shoir sonetidagi oktava va sestet alohida g'oyani ilgari suradi. Shuning uchun ular alohida qofiya tartibiga ega. Iqtidorli shoir Salim Ashur ruschadan tarjima qilgan bu sonet klassik sonet namunasi hisoblanadi va tarjimonning mahorati shundaki oktava sestetning qofiyalanish tartibini saqlab qola olgan.

Romantik sonet haqida fikr yuritish uchun Uilyam Shekspir sonetlarini ko'zdan kechirish lozim. Oldingi sonetnavislarning sonetlari faqatgina mahbubaga bag'ishlangan bo'lsa, Shekspir sonetlari mahbubaga, ayni damda, do'stga bag'ishlangan bo'lib, ishqiy mazmun bilan bir qatorda axloqiy mazmun ham kasb etadi.

From fairest creatures we desire increase,  
That thereby beauty's rose might never die,  
But as the ripper should by time decrease,  
His tender heir might bear his memory:

But thou, contracted to thine own bright eyes,  
Feed'st thy light's flame with self-substantial fuel,  
Making a famine where abundance lies,  
Thyself thy foe, to thy sweet self too cruel.

154 sonetning birinchisi sanalgan bu sonet to'rt misrali uch katren, ikki misrali bir distixdan iborat. Uning ikki katrenini ikki tarjima misolida tahlil qilish mumkin. Rus tiliga qilingan tarjimadan Yusuf Shomansur o'zbek tiliga o'g'irgani bilvosita tarjima sanaladi.

Go'zallik barq ursin, so'lmasin, deya  
A'lo novdalardan kutamiz hosil.  
Qarigan gul bargin to'ksa mayliga,  
Ketidan g'unchalar yozajakdir gul.

Sen-chi, o'z husningga o'zing mahliyo,  
Noyob xislatini etyapsan qurbon.  
To'kislikdan nurab bo'lyapsan gado,  
Sen o'zing o'zingga yovsan beomon.

Bu tarjima barmoq she'riy tizimining 11 hijoli sodda vaznida amalga oshirilgan bo'lib, 6+5 shaklida turoqlangan. Sonetning bu ikki bandida qofiya a-b-a-b; d-e-d-e tartibida berilgan. Muhimi, asliyatda ham, Jamol Kamol tarjimasida ham qofiya tartibi shunday.

154 sonetning birinchisi sanalgan bu sonet to'rt misrali uch katren, ikki misrali bir distixdan iborat. Uning ikki katrenini ikki tarjima misolida tahlil qilish mumkin. Rus tiliga qilingan tarjimadan Yusuf Shomansur o'zbek tiliga o'g'irgani bilvosita tarjima sanaladi.

Go'zallik barq ursin, so'lmasin, deya  
A'lo novdalardan kutamiz hosil.  
Qarigan gul bargin to'ksa mayliga,  
Ketidan g'unchalar yozajakdir gul.

Sen-chi, o'z husningga o'zing mahliyo,  
Noyob xislatini etyapsan qurbon.

To'kislikdan nurab bo'lyapsan gado,  
Sen o'zing o'zingga yovsan beomon [6,4].

Bu tarjima barmoq she'riy tizimining 11 hijoli sodda vaznida amalga oshirilgan bo'lib, 6+5 shaklida turoqlangan. Sonetning bu ikki bandida qofiya a-b-a-b; d-e-d-e tartibida berilgan. Muhimi, asliyatda ham, Jamol Kamol tarjimasida ham qofiya tartibi shunday.

Istaymiz, go'zallar bo'lsin ziyoda, a  
Go'zallik barq urib, yashnasin abad. b  
Atirgul qovjirab to'kilgan onda a  
Nozik gulg'unchasi ochilsin faqat. b

Sen esa yoshliging, yurak otashing f  
Husningga baxsh etib, ey sohibjamol, e  
To'kinlik bor joyda ochlikdir ishing, f  
Ki senga yovdir ul, g'animdir qattol [3,234] e

Jamol Kamol ingliz tilidan to'gridan to'g'ri tarjima qilgan. Bilvosita tarjimadagi kabi 11 hijoli sodda vaznda, 6+5 shaklida turoqlangan holda o'zbek tiliga o'girilgan. Ammo katrenlarning mazmuni mohiyatan bir bo'lsa-da, ifodasida farqlar seziladi. Ikki tarjimadagi ikki katreniga diqqat qiling. Farqlarni konseptual jadval asosida chog'ishtirsak:

№	Yusuf Shomansur tarjimasida	Jamol Kamol tarjimasida
1-katrenda	go'zallik	go'zallar bo'lsin ziyoda,
	a'lo novda,	Go'zallik yashnasin abad
	Qarigan gul bargin to'ksa	Atirgul qovjirab to'kilgan
	g'unchalar	Nozik gulg'unchasi ochilsin
2-katrenda	o'z husningga o'zing mahliyo	yoshliging, yurak otashing
	Noyob xislatini etyapsan qurbon.	Husningga baxsh etib, ey sohibjamol
	To'kislikdan nurab bo'lyapsan gado,	To'kinlik bor joyda ochlikdir ishing,
	o'zing o'zingga yovsan	ishing, senga yovdir, g'animdir qattol

Ikki tarjimon ham mahoratli ekani, iqtidorli shoir ekani qo'l kelgani bilingan. Ammo Yusuf Shomansur bilvosita tarjima qilgani bilingan bo'lishi mumkin. Ikki tarjimoni solishtirish mumkin, ammo baholamaslik zarur. Chunki asliyatdan qilingan tarjima bilan tarjimadan qilingan tarjima farq qilishi tabiiydir.

Rus she'riyatida sonet janri XVIII asrda paydo bo'la boshladi. Rus tilidagi birinchi sonet 1735-yilda yozilgan bo'lib, u Trediakovskiy qalamiga mansub edi va bu sonet fransuz shoiri Jak de Barroning sonetining tarjimasidir. XVIII asrda rus adabiyotida klassisizm va fransuz she'riyati ko'proq ta'sir ko'rsatgani sabab Shekspir sonetlari rus ijodkorlariga yaxshi tanish bo'lsa-da, o'z ta'sirini o'tkaza olmagan. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, Rossiyada sonet janri oltin va kumush davrni boshidan kechirdi.

I.I.Dmitriyev, V.A.Jukovskiy, A.A.Delvig, Aleksandr Pushkin kabi shoirlar oltin davr sonetnavislari sifatida mashhurlikka erishgan. Dmitriyev "Sonet" (1796), V.A.Jukovskiy "Nafis o'pich uchun siz sonet talab qilasiz ..." (1806), A.A.Delvig "N.M.ga. Yazikov" (1822) nomli sonetlar yaratishgan. A.S.Pushkin bu janrda "Madonna", "Shoirlar", "Sonet haqida sonet" nomli sonetlar yaratgan. Bu sonetlar uchtagina bo'lsa ham ko'p muxlislar topdi va manzur keldi. Pushkinning "Sonet" she'ri alohida e'tiborga loyiqdir.

Xulosa. XIX asrga kelib rus shoirlari Shekspir sonetlarini tarjima qilishni boshlashdi. XX asr boshlarida taniqli rus sonetnavislari ko'zga ko'rinda boshladi. Rus sonetlari mavzusi kengaydi, shakli erkinlashdi va shu sabab dunyo sonetchiligida zamonaviy sonet turini asoslash ularga taqdir qildi. Dunyo sonetchiligi sekin-asta rivojlanib, XX asrda Sharq, jumladan, o'zbek she'riyatiga ham ko'chdi va lirikamiz janrlari safidan joy ola bordi. Zero, sonet janri takrorlanmas janrlardan biri sifatida keng tarqaldi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Hollander J. *Sonnets: From Dante to the Present. Everyman's Library, 2001. – 121P.*
2. Hojiahmedov A. *Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: Sharq NMK, 1999. – 240 b.*
3. Jamol Kamol. *Shayxurrais. Saylanma. Yettinchi jild. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. – 416 b.*

4. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. *Adabiyotshunoslik lug'ati*. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – 400 b.
5. Rahmonova S. *Sonetlar gulchambari va janr taraqqiyoti// Jahon adabiyoti*. – Toshkent, 2008. 1-son, B. 134-136.
6. Vilyam Shekspir. *Sonetlar: ruschadan Yusuf Shomansur tarjimasini*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. – 158 b.
7. Qayumova, Nigora. "Ideology and art of william shakespeare's sonnets." *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences 2.8 (2023)*: 94-97.
8. Qayumova N. (2023). Шекспир ва рауф парфи сонетларида бадиий тасвир воситаларининг қўлланиши. *центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 30(30). извлечено от [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/9194](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9194)
9. Qayumova Nigora. "The Genre Sonnet in the Poesis of Shakespeare." *Центр научных публикаций (buxdu. uz)* 32.32 (2023).
10. Buriyeva, Qayumova Nigora Muxtor. "Ingliz shoirlari talqinida sonet janri." *Ustozlar uchun* 43.3 (2023): 102-106.
11. <https://ik-ptz.ru/russian-language/sonety-russkih-poetov-19-veka-sovremennyi-russkii-sonet.html>